

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT
UNIVERSITETI

FILOLOGIYA fakulteti

O'ZBEK FILOLOGIYASI kafedrası

KURS ISHI

MAVZU: Muhammad Aminxo'ja o'gli Muqimiy hayoti

Bajargan:

Atabayeva Iroda

Qabul qilgan:

Duysetboyev Olim

Nukus – 2013 y

Muhammad Aminxo'ja o'g'li Muqimiy hajviyoti

Reja:

I.Kirish:

a.Muqimiy ijodining o'rganilish tarixiga bir nazar.

Asosiy qism:

a. Davrning johil sarmoyadorlari haqidagi hajvlarining g'oyaviy xususiyatlari.

b. "Saylov" mavzusi Muqimiy va Zavqiy talqinida.

d.Muqimiyning hajvlarida ijtimoiy voqealarga munosabat.

III.Xulosa.

Muhammad Aminxo'ja – Muqimiy lirik shoir va zabardast hajvchi sifatida XIX asrning so'nggi choragida va XX asr boshlaridagi o'zbek milliy adabiyotining eng yirik namoyondalari qatorida dong taratdi.

Markaziy Osiyo shu jumladan O'zbekiston chor Rossiyasining mustamlakasiga aylantirilgan sharoitda qalam tebratgan Muqumiy ijodi chin ma'noda xalqchildir. U ezilgan mehnatkash omma, bechora kosib-u hunarmandlar va xonavayron qishloq dehqonlarining otashin kuychisi bo'lib maydonga chiqdi. Mustamlaka tuzimidagi adolatsizlik va zo'ravonlikni, joriy tartib-qoidalarini, xalqona uslubda ayovsiz qorladi. Uning asarlarida insoniy ishq muhabbat ulug'landi. Iymon-e'tiqod, xalollik erkparvarlik, do'stlik, pokdomonlik, ona tabiat va go'zalliklardan zavqlanish ishonarli lavhalarda juda ta'sirchan ifodalandi.

Muqimiy XIX asr o'zbek adabiyotining eng mashhur vakillaridan biridir. U o'z ijodi bilan jahon adabiyotshunosligida “devon adabiyoti” deb nomlanadigan sharq adabiyotidagi eng yaxshi an'analarni davom ettirdi. Ayni paytda rus istilosi tufayli ijtimoiy hayotda kechayotgan o'zgarishlarni adabiyotga olib kirib, uning yangilanishida munosib hissasini qo'shdi. Muqimiy shoirlar orasida o'zining zo'r iste'dodi, o'ziga xos uslubi bilan ajralib turadi. U oddiy xalq ichidan chiqqan va butun kuch-g'ayratini shu xalq uchun baxsh etgan shoirdir.

Muqimiy ijodini o'rganish uning hayotlik chog'idan boshlangan. She'rlariga bildirilgan turli-tuman munosabatlar haqidagi baxslar, maqolalar bunga dalil bo'ladi. Shoir vafotidan keyin uning devoni “Devoni Muqimiy” nomi bilan ilk bor 1907-yil N. Ostroumov tomonidan nashr etildi. Unda shoirning she'riy asarlari bilan birga tarjimai holi va ijodi haqida qisqacha ma'lumot ham berilgan edi. Maqola muallifi N. Ostroumov uning shaxsiga baho berar ekan, shoirni o'quvchiga qalandarsifat, darveshvasb bir qiyofada taqdim etadi va asosiy mashg'ulotini taqvo va she'r yozish edi, deb ko'rsatadi. 1910 yili Portsev litografiyasida “Devoni Muqimiy maa hajviyot” nomi bilan shoir asarlarining ikkinchi nashri amalga oshirildi. Shoir ijodini jiddiy va keng ko'lamda o'rganish o'tgan asrning 30-yillaridan boshlandi. Bu davrda Muqimiy asarlarini to'plash, o'rganish, nashr etish qizg'in va samarali olib borildi. Gazeta va jurnallarda qator maqolalar e'lon qilindi. Bu xayrli ishning boshida

buyuk shoir G'afur G'ulom turdi.Uning tashabbusi bilan 1938 yil "Muqimiy bayozi" tuzulib nashr etildi."Bayoz"da shoirning 800 misradan iborat 27 she'ri berilgan bo'lib,ular janr xususiyatiga qarab joylashtirilgan.(Satira yumor,lirika)va ularga zaruriy izohlar,lug'atlar berilgan.1950-yil shoir asarlari "Lirika i satira " nomi bilan Moskvada rus tilida bosildi.1953 yil Muqimiy vaqfotining 50 yilligi munosabati bilan u haqda bir qator tadqiqotlar yaratilib,Muqimiyshunoslikka asos solindi.H.Yoqubovning "O'zbek shoiri Muqumiy",A.Olimjonovning "Muhammad Amin Muqimiy",H.Zaripovning "Muhammad Amin Muqimiy",H.Razzoqovning "Muqimiy va Zavqiy" nomli kitoblari hamda "Furqat va Muqimiy" nomli maqolalar to'plami,Muqimiy "Tanlangan asarlar"ini rus va o'zbek tillaridagi nashri,shoirning ikki tomlik asarlar to'plami (1960) bunga yaqqol misol bo'la oladi.Muqimiyshunoslik,asosan ikki yo'nalishda bordi:

A.Muqimiy ijodini bevosita o'rganish;

B. Shoir ijodini ijtimoiy-tarixiy aspektda,zamondoshlari va salaf (o'tmishdosh) hamda halaf (izdosh)lari me'rosiga qiyosan o'rganish.Professor G'ulom Karimov-muqimiyshunoslik maktabiga asos solgan olim.Uning bu boradagi ilk maqolasi "Muqimiyning hayoti va ijodini o'rganish tarixidan"(1957 yil) oliy o'quv yurtlari talabalari uchun yozilgan "O'zbek adabiyoti tarixi" uchinchi kitobidagi,Muqimiyga bag'shlangan tadqiqotlar 1962-yilda yoqlagan "O'zbek democrat shoiri Muqimiy va uning davri adabiyoti" doktorlik dissertatsiyasi,1970 yil nashr etilgan "Muqimiy.Hayoti va ijodi" monografiyasi muqimiyshunoslik ilmining sara namunalaridir.

Muqimiyning bizgacha yetib kelgan ijodiy me'rosini 10 ming misra atrofida taxmin qiladilar ular asosan lirika va hajviyotdan iborat. Muqimiy me'rosining katta qismini g'azal,murabba va muxammaslar tashkil etadi.Ma'rifatchi shoir she'rlarida go'zal insoniy tuyg'ular,yoqimli va tushunarli ifodalangani uchun xalq orasida tez yoyildi.Muqimiy she'rlarida Mamajon Makay,Nozimxon,Farzincha,Ismoil naychi singari o'z davrining taniqli san'atkorlarini tilga oladi. Muqimiy ijodiy me'rosida hajviyot salmoqli o'rin tutadi.Muqimiy hajviyoti uning ijodidagi asosiy motivlar bilan uzviy bog'liq bo'lib,shoir ijodiy qiyofasini to'liq tasavvur qilishga shoir ijodining

ijtimoiy ahamiyatini to'laroq tushunishga yordam beradi. Muqimiy o'z lirikasida ifodalay boshlagan hukmron muhitdan nolish, shikoyat qilish, mavjud tuzum tartiblaridan qanoatlanmaslik, hasrat nadomatlari hajviyotda yanada kuchaytirilib keskin tus oldirib, tanqidiy, satirik va yumoristik asarlar yaratdi. Yangi zamonning vakili sifatida shoir ijodiga millatning o'zgarib borayotgan ijtimoiy tafakkuri kuchli ta'sir ko'rsatishi tabiiy edi. Chunki u borliqdan, ijtimoiy turmushdan atrofdagi odamlarning dard-u g'amlaridan uzilib qolmagan, balki shukarga qo'shilib borayotgan ijodkor edi. Shuning uchun ham Muqimiy ijodida jamiyat va shaxslar hayotidagi illatlarni inkor etish, ularni kulgiga olish, hajviy tanqid qilish, xullas, faol ijtimoiy munosabat yetakchilik qiladi. Yangi o'zbek adabiyotining asl belgilari ham aynan shu jabhalarda namoyon bo'ladi. Mumtoz adabiyotda hajviyotga ancha past nazar bilan qaralgan. Chunki hajviyot bilan shug'ullanish adabiyotni oddiy hayotga, odamlarning tirikchiliklariga yaqinlashtirardi, ilohiy muhabbat, Olloh tajallisi o'rniga turmushning kir va jo'n hodisalarini qalamga olishni talab etadi. Mumtoz adiblar nazarida bu hol adabiyotni jonlantirgan, Olloh sifatlarini vasf etishdan iborat. Asosiy vazifasidan chetlashtirilgan.

Yangi zamon yangicha qarashlarni taqozo etdi. Muqimiy yangi zamonning yangicha qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan ijodkor edi. Shuning uchun ham uning ijodida hajviyot uhim o'rin tutadi. Shoir hayotidagi nohaqliklar, adolatsizliklar, qaloqlik, jaholat singari illatlarni tuzatish lozim va mumkin ekanligiga umid bog'lar va ijodini shunga yo'naltirgandi. Shu ma'noda Muqimiy-lirik shoir bilan Muqimiy-hajvigo'y tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi. Faqat farqi shundaki, lirik shoir Muqimiy bir xil adabiy usullar ishlatgan, oliyjanob va samimiy, ijobiy obrazlar yaratgan bo'lsa, endi u satirik shoir sifatida boshqacha adabiy usullar qo'llab, tanqidiy-satirik obrazlar yaratdi, yovuzlarning kulgili, jirkanch tashqi qiyofalarini ochib tashladi.

Muqimiy hajviyoti o'z mazmuni va uslubi, badiiy usuli jihatidan satira va yumorga bo'linadi. Muqimiy satiralari mazmun jihatdan boy, tematik jihatdan rang-barangdir. Aytish mumkinki, Muqimiy satiralari jamiyat hayotining hamma asosiy tamoyillarini qamrab oldi.

Muqimiy satiralarining mohiyatini ravshanroq ochish va ular to'g'risidagi mulohazalarimizni osonlashtirish uchun bu satiralarni tanqid ob'yektiga qarab shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin:

1.Chor chinovniklari va mahalliy amaldorlar zulmini ko'rsatishga,ularning jirkanch obrazlarini yaratib fosh etishga qaratilgan satiralar ("Tanobchilar","Dodxohim","Axtaring","Saylov","Tar mevalar" va boshqalar)

2.Mahalliy boylar kirdikorlarini ochib tashlashga ularning xususiy mulkchilik zaminida tug'iladigan pastkashliklarini ko'rsatishga qaratilgan satiralar("Maskovchi boy ta'rifida","Hajvi Viktorboy", "Hajvi Viktor","Voqeari Viktorr","Dar shikoyati Laxtin","Voqeari ko'r Ashurboy Hoji","To'yi Iqonbachcha","Hoji qadoqchi ","Gap to'g'risida gap " va boshqalar)

3.Jamiyatda tekinxo'rlik bilan kun ko'ruvchi din ahillarini tanqid qilishga,ularning fe'l-atvorlaridagi iflosliklarni kulgili hollarni tasvirlashga bag'ishlangan satiralar("Avliyo").

Muqimiy hajviyalari mumtoz she'riyatimizning turli janrlarida yozilgan.Masalan,"Tanobchilar","To'yi Iqonbachcha","Maskovchi boy ta'rifida","Voqeari Viktor" kabi she'rlar masnaviyda bitilgan bo'lsa,"Saylov","Dar shikoyati Laxtin","Voqeari ko'r Ashurboy hoji" g'azal yo'lida yozilgan."Hajvi Viktor","Hajvi Viktorboy" she'rlari muxammas shaklida bitilgan.

Muqimiy lirik shoir sifatida qanchalik mashhur bo'lgan bo'lsa ham kuchli satirik sifatida ham xalq orasida shunchalik katta shuhrat qozongan.Shoir bu tur asarlari uchun mavzu va timsollarni o'sha hayotdan olib o'zida tanish yaxshi voqea-hodisalarni tanqidiy tahlil etdi.O'sha davr ruhidan oziqlandi.Muqimiy hajviyoti uchun "xom ashyo"avvalo chorizm o'rnatgan mustamlakachilik tartibi hukmron adolatsizlik va zo'ravonlik inson haq-huquqining toptalishi,chor va mahaliy amaldorlarning o'zboshimchaligi va shafqatsizligi aldamchilik va axloqiy tubanliklar berdi.Mehnatkash omma,hunarmandkarning og'ir iqtisodiy ahvoli,mustamlaka zulmi ostidagi shahar-qishloqlarning vayronaga aylanishi nochor shaxs taqdiri Muqimiy hajviyotida yetakchi o'rin egallaydi. XIX asr oxiridagi tarixiy sharoitda tomir otgan takabbur poraxo'r tanobchilarning tovlamachi,yulg'ichlarning esda qoladigan

obrazlarini yaratdi.U o'z she'rlaridan birini "Tanobchilar" deb atadi.Tanobchi-yer o'lchovchi degani. Erta bahorda dehqon yerga ekinni ekib bo'lgach,maxsusu kishilar chiqib uni o'lchaganlar va shunga qarab soliq belgilangan.Bir tanob – gektarning oltidan birini tashkil qilgan."Tanobchilar " satirasi amaldorlar zulmiga yo'liqqan oddiy bir dehqonning hikoyasi tarzida yozilgan.Dehqon o'z boshiga tushgan kulfatlarni,kechirgan sarguzashtlarini shunday hikoya bilan boshlaydi:

Bo'ldi taajjub qiziq hangomalar,

Arz etayin emdi yozib nomalar.

O'n ikki oyda keladur bir tanob,

O'zgalarga roxat-u menga azob

Haqiqatdan ham,bu "tanob" voqeasi o'zgalarga-boylarga,katta yer egalariga roxat baxsh etar,oddiy mehnatkash dehqonlarni esa azob-uqubatga solar,xonavayron qilar edi,chunki yerni "tanob"lash orqali chor hukumatining olib borayotgan og'ir soliq siyosati amalga oshirilar edi.

Ma'lumki,chor mustamlakachilari tomonidan o'rnatilgan tartibga ko'ra har yili dehqonlar o'z ekinini ekib bo'lganlaridan so'ng ekin maydonining qanchaligini asniqlash va shunga qarab soliq solish uchun amaldorlar qishloqlarga chiqar edilar.Ular ekin maydonlarini tanob bilan o'lchaganlari uchun ular tanobchilar deb yuritilgan.Tanobchilar qishloqlarda istaganlaricha zo'rlik o'tkazar,poraxo'rlikni avj oldirib boylarga yon bosar,kambag'allar yerini o'lchashda turli firibgarliklarni ishlatib,xalqni katta soliqlar bilan qiynar edilar.Xalqning ana shunday ayanchli hayoti "Tanobchilar" she'rida aks etadi.Muqimiy bu she'rida mehnatkash dehqonlarning og'ir ahvolini ko'rsatish bilan birga,chor malaylari bo'lgan mahalliy amaldorlarning jirkanch tipik qiyofasini tasvirlaydi.

"Tanobchilar" satirasining bosh qahramonlari Sulton Alixo'ja bilan Hakimjonlardir.Poraxo'rlik adolatsizlik va zo'ravonlik ularga xos xususiyatdir.

Muqimiy bu amaldorlarni yolg'iz holda emas balki o'z „xo'jayin" lariga suyangan holda ular nomidan harakat qildirib , satirada tipik sharoit yaratadi Muqimiy bu ikki amaldorni xalqni talash uchun „ittifoq" tuzib , do'st ahil bo'lib olganliklarini juda ustalik bilan fosh etadi:

Sulton Alixo'ja ,Hakimjon ikov ,

Biri xotun ,birisi bo'ldi kuyov,

Ikkalasi bo'ldi chunon ittifoq ,

Go'yo hayol aylaki ,qilmayin nifoq.

Osh yesalar ,o'rtada sarson ilik ,

Xo'ja –chiroq yog'i,Hakimjon –pilik,

Shu taxlitda shoir Hakimjon bilan Sulton Alixo'janing yer o'lchash uchun qishloqqa chiqib kelishini ,nasl-nasablari, amal va huquqlari to'g'risida dehqonlarga maqtanib, ulardan pora talab qilishlarini ,porani olganidan so'ng ham dehqonlar yerini ortiqcha „duchandon ‘’ o'lchab, ularga zulm o'tkazishlarini aks ettirib, ularning tipik xarakterini ochib beradi. Chunonchi,Sulton Alixo'ja xalqqa shunday buyruq beradi:

Menki tanobingga chiqibman kelib,

Xizmatimni yaxshi qilinglar bilib,

O't qo'yubon kuydiradurg'on o'zum,

Xokimingu o'lduradurg'on o'zum .

Xoh tanobingni duchandon qilay,

Xoh karam birla boshingni silay.

Hakimjon ham zo'ravonlikda Sulton Alixo'jadan qolishmaydi:

Ikki tanobingnin qilay o'n tanob ,

Yurtingizni kuydirib aylay xarob.

Sulton Alixo'ja bilan Hakimjonning bu xilda o'zini xo'jayin hisoblab , xalqqa do'q qilishi tasodifiy emas edi.Haqiqatan ham chor hokimiyatining vakillari sifatida xalqqa cheksiz zo'rlik va zulm o'tkazish huquqiga ega edilar.Adolatsizlik hukmron bo'lgan o'sha zamonlarda ular ustidan qilingan xalq arzini, shikoyatini,hech kim eshitmas, ularning har qanday kirdikorlari ,jinoyatlari jazosiz qolib ketar edi.Shuning uchun ham ular:

Zulm birlan elligu yuzni olur,
Boz tanobini duchandon solur.

edi. Bundan shoir g'azablanib , mavjud tartiblarga nafrat bildiradi, la'natlar o'qiydi. Shoir satirasining hokim guruhlariga qaratilgan so'nngi misralarida bunday alam-hasrat va nafrat ayniqsa kuchli ifodalanadi.

Tog'i bular yaxshi –yu bizlar yomon ,
El tamizidin hazar et, al'omon.

Maqtanchoq, haromxo'r tanobchilarning mushugini "pisht" deydi. Kimsa yo'q. Xalq-gumroh. Chor hukumatiga esa shunisi ma'qul." Tanobchilar " adabiyotimiz tarixida ushbu holatning umumlashma ifodasini bergan asar sifatida alohida ahamiyatga ega.

Muqimiyning "To'yi Iqonbachcha " hajviyasida o'zida bo'lmagan sifatlar bilan maqtanadigan , chiranchoq odamlar ustidan kuladi. O'zbek uchun to'y qilish – o'talishi lozim bo'lgan burch , lekin uni ayrimlar sohta obro' orttirish vositasiga aylantiradi. Jumladan, inoqlik gumashta , hech kim so'ramasa ham oldindan o'g'limga unday to'y qilaman , bunday osh beraman , deb kerilib yuradigan maqtanchoqlardan biri . Gumashtaning Toshkentdagi xo'jayiniga sim qoqishi bilan kechagina katta to'y qilib, hammani qoyil qoldiraman deb yurgan kimsa birdaniga o'zgarib, to'yni yeng ichida o'tkazishga urinadi. Xo'jayinning qanday odam ekanligi quyidagi misralarda yaqqol ko'rinadi:

Men rizomas kishiga non bersang,
Yo tovuq saqlasang-u don bersang.

Tuynugingdan agarda chiqsa tutun,
Bunda ber dastmoyalarni butun.

Bo'lsa umidingiz agar bizdan
Manfaat ko'rmasin birov sizdan.

Toshkentlik boyning bu ko'rsatmasi Iqondagi gumashta uchun dastur bo'ldi. Lekin to'yni o'tkazmaslikning iloji yo'q edi. Shuning uchun ham gumashta boy

ko'rsatmalariga amal qilib,to'y xarajatlarini juda ham qisqartiradi.Muqimiyning tasvirlashicha,maslahat oshiga uch kishi chaqiriladi,qo'y so'yilib go'sht-yog'i xumga bosiladi,ular oldiga kalla sho'rva olib chiqiladi.To'yga yeti kishi aytilib ular oldiga "qotg'on mog'or otg'on" non qo'yiladi.Hajviyaning keyingi qismida bevosita "to'y" ning o'tish jarayoni kulgili yo'sinda aks ettiriladi va bunda shoirning mahorati to'la namoyon bo'ladi.Bu hol odamlarni to'yga aytish tasvirida ko'rinadi:

Yetti odamni o'z mahallasidan,
Qorni to'q yangi to'n basallasidin,

Qildi shovqinlamay imo uyidin,
Mundin,undin,yuqoridin,quyidin.

Ma'lumki o'zbekning to'yiga hamma aytiladi.Gumashtaning o'zi ham ko'pchilikning to'yiga borgan, lekin o'z to'yiga yuqoridagiday qilib, yetti kishinigina chorlaydi.To'yxonadagi holat esa undan ham g'aroyib:

O'choq ustida gar yo'talsa birov,
Yer edi yelkasiga yetti kosov.

Biri qattiq chiqarsa ovozin,
Bilmasin qo'shni deb tutin og'zin.

Muqumiy gumashta obrazini zo'r mahorat bilan chizgan.Satirada keltirilgan epizodlar g'oyat xarakterli va o'rinli.Oyoq uchida yurib ish bitirish,yeng ichida to'yga odam aytish,ovoz chiqarmay osh damlash,o'choq boshida yo'talgan kishining yelkasiga kasov bilan tushirish,dasturxon yozish va osh tortish-bularning hammasi bir maqsad uchun – gumashta obrazini yaqqol ko'rsatish uchun xizmat qiladi.Chunonchi to'yga yozilgan dasturxon va tortilgan osh ta'rifi shunday bayon etiladi:

Soldi alqissa eski dasturxon,
Qo'ydi,soyil kabi necha xil non.

Suzdi osh bir likavda uch kishidin,
Ketti oshni ko'rib hamma hushidin.

Osh misoli tabaqda ko'z yoshi,
Kurmaki ko'p gurinchidin toshi.

Muqimiy satira oxirida to'y o'tgandan so'ng hisob-kitob qilinganini,jami xarajat o'ttiz uch tanga bo'lganini aytib,qo'qonlik gumashtaga el-yurt nomidan "uyatsiz" degan baho berib satirani o'ziga xos uslubda tugatadi.

Satirada ortiqcha,keraksiz epizod-lavha bo'lmaganidek,birorta o'rinsiz so'z badiiy tasvir ham yo'q.Satira g'oyaviy-badiiy jihatdan yetuk va kompozitsion tuzilishi jihatidan tugallangan asardir.Muqimuy tasvirlagan gumaszhta obrazi jamiyatdagi ma'lum ijtimoiy guruhning mohiyatini ochib beruvchi tipdir.U mulkdorlar o'rtasida keng tarqalgan va xususiy mulkchilikning ajralmas qismi bo'lgan xasislikm va baxillik xususiyatlarini o'zida gavdalantiradi.Xasislik va ochko'zlikning timsoli sifatida tasvirlangan gumashta obrazi toshkentlik boy va uning qo'qonlik gumashtasi adabiyotimizda yagona obraz emas.Bu xildagi obrazlar o'zbek adabiyotida ham,jaxon adabiyotida ham anchagina.Masalan,O.Balzakning "Gopsek " romanidagi Gopsek obrazi,A.S.Pushkinning "Xasis ritsar" asaridagi ritsar obrazi ana shunday yaramas xislatlarni tashuvchi kishilardir.Bunday obrazlar o'zbek adabiyotida ham bor.Sadriddin Ayniy yaratgan "Sudxo'ring o'limi" asaridagi Qori Ishkanba obrazi o'zining mohirona yaratilganligi bilan jaxon adabiyotidagi hech qanday xasis obrazdan qolishmaydi."To'yi Iqonbachcha" satirasida Muqimiy tomonidan yaratilgan xasis obrazi adabiyotdagi shu xildagi obrazlar tizimidan o'ziga munosib o'rin olgan."To'yi Iqonbachcha" satirasida gumashtaning xasislikdan tashqari yana bir xislati:malaylik xislati ham fosh etiladi.Gumashtaning birinchi xususiyati-ochko'zlik qanday chuqur mazmunga ega bo'lsa,uning ikkinchi xususiyati malayligi ham shunday katta umumlashtirma kuchga egadir.Chunki gumashtaning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeidan kelib chiqadigan xushomadgo'ylik, yalinchoqlik,qo'rqqqlik xususiyatlari ma'lum ijtimoiy guruhga xos hisoblanadi.

Muqimiy yashab o'tgan davrda saylov hodisasi ijtimoiy-siyosiy hayotimizda oldin uchramagan yangilik bo'lgani singari uning tasviri adabiyotimiz uchun hali ishlanmagan mavzu edi.Chor hukumati Turkistonda saylov joriy etib,yuzboshi,mingboshi,qozi kabi amaldorlar saylanadigan bo'ldi.Lekin bu saylov

odil yo'l bilan o'tkazilmaganligi uchun ham poraxo'rlikka yo'l ochdi,saylovda yutib chiqish talabgorlarining pul sochish musobaqasiga aylanib ketdi.Xalq dardidan uzoq o'z foydasidan boshqa narsa bilan ishi yo'q amaldorlar saylovdan qo'rqishadi.Shoir "Saylov " she'rida shu illatlarni qalamga oldi.Yetti baytdan iborat bo'lgan bu g'azal keyingi vaqtlarda (1956 yilda) topildi.

Qachonkim bo'ldi hokim amri bilan ibtido saylov,
Amaldor ahli boshig'a bo'lib keldi balo saylov.

Teraklar bargidek titrab,jami qozi mingboshi,
Degaylarkim:"Yuzini teskari qil,ey xudo,saylov".

Muqimiy bu mavzuni o'ziga xos mohirlik va g'oyaviy yuksaklik bilan ishlaydi.U hokimlar amri bilan xalq boshiga tushgan bu g'alvani "balo saylov","vabo saylov" deb ataydi.Haqiqatdan ham amalparast xudbin ma'murlarning hayot-mamotini hal qiluvchi bu voqea natijasida qizib ketgan o'zaro kurashlarning butunn og'irligi xalq ommasiga tushar edi:

Sochib qarzu qavola,pul ko'tarib istayub mansab,
Bo'lolmay ko'p kishini sindirub,qildi gado saylov.

Taloshi joh aylab ot chopib olmay dami orom
Musulmonlarning rangin ayladi chun qahrabo saylov.

Muqimiy saylov tashvishalarining bir hovuch puldorlar va amaldorlar uchunligi,oddiy odamlar undan tamomila tashqarida ekanligi va befarq ekanliklarini g'azal maqta'sida ko'rsatib beradi:

Muqimiy og'ridi boshlar xaloyiq guftugo'yidin,
Shahar tinchib qolurdi bo'lsa-chi emdi adi saylov.

Bu davrda Muqimiyning "Saylov" nomli satirasidan tashqari,Zavqiyning "Voqeai qozi saylov" asari ham yuzaga keldi.Bu asar Zavqiy asarlari orasida topilgan ikki asarning biri bo'lib 1909 -1910 yillar atrofida yozilgan asar 65 bayt, 130 misradan

iborat. Asarning asosiy mavzusi so'nggi asrlardagi adabiyotimiz uchun tanish bo'lgan saylov masalasidir. Ma'lumki bu mavzu adabiyotimizda Zavqiydan tashqari Hamzada ham bor edi. Zavqiy o'z asarini quyidagi misralar bilan boshlaydi:

Siz eshitsangiz, ahli Farg'ona,
Aytayin bir ajoyib afsona

Qilaman bir hikoyai saylov,
Bir kishi qoziyu, chiqdi birov.

Hokimlar tomonidan Qo'qon shahrining Xo'jand dahasi qoziligiga saylov e'lon qilingandan so'ng, qozilik mansabini talashish hangomasi boshlanib ketadi. Asarda tasvirlanishicha raqobatda ishtirok qiluvchi ko'p odamlar ichida ayniqsa ikki da'vogar qozilik mansabida o'sha vaqtda ishlab turgan mulla Kamol bilan sobiq qozi mulla Hakimjon ajralib turar edi. Mulla Kamol aslida shahrixonlik bo'lib, Qo'qonda Shokir qora, Olim qavoq va Hasanjon alamlar bilan til biriktirib olgan va istagancha noma'qulchiliklar qilar edi. Saylov e'lon qilingach, u o'n ming qarz ko'tarib xo'b sarf qiladi, kattalarga pora berib, saylovchilarning og'zini moylashga harakat qiladi. Sobiq qozi mulla Hakimjon ham qarab turmaydi. Atrofiga Solixez, Mo'minshoh kabi boylarni, shoh Inoyat qo'rboshi kabi amaldorlarni to'plab olib, ishga kirishadi. Mulla Kamol bilan Hakimjon qozi o'rtasidagi tortishuv oqibati tarafma-taraf bo'lib, mushtlashishgacha borib yetadi. Lekin ishni shahar hokimi hal etar edi:

Kim qozi Kamolga borib bir-bir,
So'zlab dedilar: "Aylagil tadbir",

Bir-birin urib boshini yordi,
Dod deb u hokim oldig'a bordi.

Hokim o'z amaldor yaqinlari bilan kengashib, Xo'jand qoziligiga mulla Hakimjonni belgiladi, chunki shoir Zavqiy ta'biri bilan aytganimizda, mulla Hakimjon ilgariroq hokimlar bilan "ishni pishirib" qo'ygan edi.

Tamomi majoroni bir-bir so'radi,
Bu xilda xalq ittifoqini ko'rdi.

Maqtadilar Hakimjonni ishirib,
Qo'yib erdilar ishin pishirib.
Hakimjonga bo'lib hokim royi,
Dedikim:"Qozilik buning joyi".

Hakimjonning qanday odam ekanligini ushbu she'rdan o'qib bilishimiz mumkin. Hakimjon ishning ko'zini birladigan makkor, ilonning yog'ini yalagan insondir. Zavqiy asarini quyidagi satrlar bilan tugatadi:

Bu voqeari Zavqiy emas yolg'on,
Mulla Kamol bo'lur shohidi burhon.

Bu satrlar asar uchun haqiqatda bo'lib o'tgan voqealar asos qilib olinganini ta'kidlaydi. Chorizm o'rnatgan tadbirlardan biri mahalliy amaldorlarni saylash usuli ediki, bu voqea atrofidan qanchadan-qancha voqealar bo'lib, qanchadan-qancha fojealar ro'y berar edi. Saylov adabiyotimiz uchun yangi mavzu bo'lgan, chor hukumati Turkistonda saylov joriy etadi. Hammasi shundan keyin boshlanadi. Zavqiy ham Muqimiy ham yuzboshi, mingboshi, qozilarning asl basharasini o'sha saylov mavzusi orqali ochib beradi.

Muqimiyning "Maskovchi boy ta'rifida" satirasi masnaviy yo'lida yozilgan. Satiraning bosh qahramoni-Hodi xo'ja. Satirada qo'qonlik Hodi xo'janing savdo-sotiq ishlari bilan boyishi, zavod qurish niyatida ishga kirishib qarzga botishi, oxirida uy-joyini, yer-suvini va hali bitmagan zavodini ham arzon bahoda sotishi, ya'ni zavodchi boyning sinishi hikoya qilinadi. Hodi xo'ja-Muqimiy satirasining taniqli va doimiy ob'yektlaridan biri. Shoir "Voqeari Viktor" va boshqa satiralarda ham Hodi xo'jani tilga oladi, shuningdek, boshqa shoirlarning asarlarida ham Hodi xo'ja nomi uchray turadi. Muqimiy "Voqeari Viktor" satirasida Hodi xo'ja to'g'risida shunday ma'lumot beradi:

Janobi o'shal Hodi xo'ja eshon,
Olur o'zlarin ag'niyoi zamon.

Hayolida Ho'qandda deydur:"Qani,
O'zimdin bo'lak xo'jayin Said, g'ani?"

Hodi xo'ja do'kon ochib savdo-sotiq qilar,yer-suv orttirib unda odamlarni rahmsizlarcha ishlatib,boylik to'plar,zavod qurishni yana katta boyliklarga ega bo'lishni orzu qilar edi.

Muqimiy "Maskovchi boy ta'rifida" satirasida hayotiy voqealarni qo'qonlik boy Hodi xo'ja kechinmalarini bayon qildi. Muqimiy Hodi xo'jani tip sifatida ijtimoiy ahvoli jamiyatdagi faoliyati nuqtai nazaridangina tasvirlab qolmay,shaxsiy hayotini oilaviy turmushini ham tasvirlash orqali uning hulq-atvori va harakterini ko'rsatadi.Shoir tasviricha Hodi xo'ja-o'z boyligiga mag'rur bo'lgan takabbur shaxs.U o'zini hammadan ulug' va ustun hisoblaydi,ko'chalarda katta oq sallani o'rab,kekkayib ot ustida yurganida,odamlar uni,alloma,shayx deb gumon qiladilar.U xalq ko'ziga pok ko'rinishga tirishsa ham aslida,axloqiy jihatdan shubhali shaxs.U oilaviy hayotda ham jirkanch qiyofasini namoyon qiladi:davlat kuchi bilan "siym – zar to'qib",go'rkov qiziga uylangan,lekin u ham boyning dastidan dod deydi:

-“Darig’oki,baxtim qaro bo’lmasa,
Senga tushmas erdim,xudo urmasa!”

Hodi xo'janing tabiati past,xulq-atvori va qiliqlari yaramas bo'lsa ham,pul – davlat kuchi bilan o'ziga qalbaki obro' tiklab yurar edi.U sinib,molu-mulki xatlanib,hovli-joyi sotilgandan so'ng,pati yulingan tovuqdek,sovuq qiyofasi bilan namoyon bo'ladi.Bu qiyofa uning asl basharasi bo'lib,u mulkdorlar o'rtasida avjn olgan ma'naviy qashshoqlikni,ahloqiy buzuqlikni o'zida mujassamlashtiradi.

“Hajvi Viktor” satirasi ham muxammas shaklida yozilgan bo'lib,u 25 misradan tashkil topadi.”Voqeai Viktor” satirasi esa masnaviy shaklidagi keng syujetli asar bo'lib,uni “Satirik doston” deb atash ham mumkin.Bu satiralarning asosiy qahramoni Viktordir.Muqimiy diqqatini jalb etgan,u haqda asar yozishiga sababchi bo'lgan bu kishi kim?

O'sha zamon vaqtli matbuoti ma'lumotiga ko'ra,Viktor Demitrovich Axmatov Qo'qondagi aka-uka Kamenskiylar savdo idorasida ish boshqaruvchi bo'lib xizmat qilgan.U mahalliy boylarga arzon bahoda Moskvadan mol keltirib berishni va'da

qilib,ulardan pul yig'ishga kirishgan va juda ko'p pul to'plagandan so'ng qochib ketib,dom-daraksiz yo'qolgan.Bu voqea Farg'ona vodiysida katta shov-shuvga sabab bo'lgan va "Viktor voqeasi" nomi bilan shuhrat qozongan.Viktor voqeasi 1891 yilda bo'lib o'tgan,Muqimiy she'rlari ham shu vaqtlarda yozilgan.

Muqimiy hajviyalarining qahramonlaridan yana biri Rossiyadan kelgan ucharlardan Laxtin edi.Muqimiy Laxtin haqida "Dar shikoyati Laxtin" nomli satira yozadi.G'azal shaklida yozilgan bu she'rda Muqimiy Toshkentdagi uddaburon boylardan bo'lgan Laxtin to'g'risida fikr yuritadi.Laxtin sanoat korxonalari:yog' va paxta tozalash zavodlar ochgan,tipografiya-litografiyalar bunyod qilgan,Turkistonning turli shaharlaridagi savdo markazlarida mol sotgan yulg'ich va olg'ich savdogar edi.Muqimiy bu hajviyasida o'rus firibgariga aldangan mahalliy boylarga achinmaydi,bu qismatlariga ularning o'zlari sababchi ekanligini aytadi.Chunki ular saxovatdan yiroq qizg'anchiq kimsalardir.

Rus yozuvchisi Saltikov-Shcherdin ham o'zining "Janob toshkentliklar" romanini yozib boylik to'plash ishtiyoqida uzoq o'lkalarga yo'l olgan rus savdogarlari va o'z ishini puxta bilgan makkor shaxslar haqida fikr yuritganda,Laxtin,Viktor singari shaxslarni ko'zda tutgan edi.

Muqimiyning xarakterli satiralaridan yana biri "Voqelai ko'r Ashurboy hoji" asaridir.Bu asari matni Muqimiy hayot vaqtida 1903 yilning boshlarida "Turkiston viloyati gazetisi" sahifasida "Xo'qandlik bir boyning sha'niga Muqimiy shoirning aytqon she'ridur" (1903 yil 15 yanvar) sarlavhasi ostida bosilib chiqdi.Demak bu satira Muqimiyning so'nggi asarlaridan biri bo'lib,u aniq bir shaxsga-"xo'qondlik bir boy"ga qarshi qaratilganki,bu hol satiraning ahamiyatini belgilashga yordam beradi.

Masnaviy shaklidagi bu satira syujetli asar bo'lib, unda hajga borib,el ko'zida "tabarruk" bo'lib olgan ko'r Ashurboy yoki hoji Ashurboyning kirdikorlari fosh etiladi.Asar quyidagi tarzda boshlanadi:

Ajab xalq ekanmiz,ajab ro'zg'or,

Qiziq hodisa,turfa layl-u nahor.

Ashurboydin eshiting qissaye,

Ayo,ey bu Farg'onada nomdor.

Qorovul uyidin yarim oqshomi,
Banogoh bo'ldi fig'on oshkor.

Mahalla bu hangomadin uyg'onib,
Eshigiga keldi,sag'ir-u kibor.

Satira syujetidan ma'lum bo'lishicha boy ahloqan buzuvchi bo'lib qo'shnisining qizi uyiga kechasi bostirib keladi,lekin shovqin-suron ko'tarilgach qochib qoladi.Odamlar uni qo'lga tushiradilar,sharmandasi chiqqan hojini mahkamaga,undan qozixonaga olib boradilar.Lekin mahkama ma'murlari ham,qozixona kattalari ham "boyning obro'si"ni tushirmaslik uchun ishni bosti-bosti qilib yuboradilar.Bu adolatsizlikning ichki siridan yaxshi xabardor bo'lgan shoir o'z satirasini quyidagi misralar bilan tugatadi:

Haqorot qilingan kishilar qolib,
Topib boy so'zi bunda zo'r e'tibor,

Qachon kambag'alning so'zi o'tar
Agar bo'lsa aqchang,so'zing zulfiqor

Nihoni sochib siymu zar suv kabi
Bosildi mashaqqat bilan bu g'ubor...

Haloyiqg'a qilmas edi ixtilot,
Agar ta'bida bo'lsa nomusu or.

Muqimiy satiralarining mavzu ko'lamini har xil,lekin mazmuni bir xil.Jumladan "Hoji qadoqchi" satirasi o'zining mazmuni va mohiyati jihatdan "To'yi Iqonbachcha ", "Choyfurush ", "Voqeai ko'r Ashurboy hoji" kabi satiralari bilan bir qatorda turadi.

Muqimiy o'zining "Avliyo" satirasida xalq oldida taqvodor pokiza bo'lib ko'rinuvchi avliyoning qanday pastkash, riyokor,munofiq odam ekanini ochib tashlaydi.Satira quyidagi tarzda boshlanadi:

Boshlarida shapka,gohe,goh dastyor avliyo,
Qo'llarida shubha-yu bo'ynida zinnor avliyo.

“Tavba” deng oxir zamona chiqsa bu yanglig’ chi bok

Har (xotinga)oshiq-u har (qizga) xushyor avliyo.

Shul erur kashf-u karomatiki bo’ylab subh-u shom,

Chiqsa har yerda bir is hozir xabardor avliyo.

Muqimiy satiralari ungacha bo’lgan satirik adabiyotdan o’zining yangi sifati yangi g’oyaviy-estetik asoslari bilan ham farq qiladi. Muqimiy shoir sifatida jamiyatlardagi butun hodisalarni xalq nuqtai nazaridan baholab, uning manfaati uchun tinmay kurashar, zararli hodisalarni esa satira kuchi bilan ayovsiz fosh etar edi. Uning satiralari o’zining g’oyaviy-estetik asoslari bilan xalqqa suyangani uchun ham qadrli va ta’sirchandır.

Qizig’i shundaki Muqimiyning ayrim satirik she’rlari ham kuyga solib aytilgan. Masalan, “Hajvi Viktorboy” muxammasining matnini N. Ostroumov ashulachilar og’zidan yozib olagani ma’lum.

Muqimiy hajviyotining ikkinchi qismi yumoristik she’rlardir. Hajviyotning bunday qismlarga bo’linishi tasodifiy emas albatta. Satira turmushning muhim hodisalari ustidan hukm chiqarib, kuchli mubolag’a va o’tkir obrazlar orqali qarshi kurashsa yumor hayotning juz’iy, ikkinchi darajali hodisalari ustidan hukm chiqaradi. Agar satira san’atkor ruhining qahr-g’azabi, chaqmoq va momaqalqirog’i bo’lsa, yumor uning kulgisi hazil-mutoibasidir. Satiraning ham, yumorning ham asosini tanqid tashkil etadi. Satirada bu tanqid hayotning tub, asosiy hodisalarning ob’yekt qilib oladi va turmush illatlarini yo’qotishni maqsad qilib qo’yadi, yumorda esa bu tanqid juz’iy hodisalarni ob’yekt qilib oladi va bu kamchiliklarni tuzatishni maqsad qilib qo’yadi. Shu ma’noda yumor oddiy kulgi emas, balki mazmundor kulgidir. Muqimiyning o’ttizga yaqin yumoristik asarlari bo’lib, ulardan yigirma beshtasi nashr etilgan. Bu yumorlar bir necha mavzu va guruhlariga bo’linadi. Muqimiyning ta’biga yoqqan temalar ham borki, shoir bu mavzularga qayta-qayta murojaat qiladi. Bu holni “Aroba”, “Loy”, “Pashsha”, “Bezgak” mavzularida ko’rish mumkin. Muqimiydan tashqari pashsha mavzusida Zavqiy, Xidir, Hamza Hakimzoda Niyozilar ham shu mavzuda asarlar yozganlar. Shoir Nodim Namangoniy Muqimiyning bezgak haqidagi she’riga javob yozgan.

Shu mavzudagi “Behad yomon bezgak” g’azali shoir biografiyasini o’rganish nuqtai nazaridan diqqatga sazovordir. Muqimiyning Moskvadagi Lazarev nomidagi jonli sharq tillari institutining tayyorlov gruppasida o’qib yurgan jiyani R.Do’smatov 1898 yil Qo’qonga tog’asi oldiga keldi, bu yerda bezgak bilan og’rib, yotib qoladi. Shoirning “Bzgak” radifli she’ri shu munosabat bilan yozilgan. Nonvoylar orasidan chiqqan oddiy o’zbek bolasini rus madaniyatining ulug’ markazi bo’lgan Moskvaga borishi va u yerda institutga kirib dunyoga mashhur rus sharqshunos olimlaridan ilm o’rganishi nihoyatda xarakterli faktdir. Bu faktning sodir bo’lishida Muqimiyning ham ma’lum darajada ishtiroki bo’lganligi. Ro’zimuhammad Do’smatov bir tomondan Muqimiy bilan yaqin qarindosh sifatida, ikkinchi tomondan Moskva institutining talabasi sifatida uzoq vaqtlar davomida shoir bilan aloqa bog’lab yurdiki, bu hol shoirning ijodiy takomiliga ta’sir etmasligi mumkin emas edi. Shoir unga odamga xos xususiyatlar beradi. “Nomusulmon” deb qarg’aydi. Mezbonlikni o’rniga qo’ymaganlikda ayblaydi:

Demaskim “tutmayin, qavmu qarindoshini ko’rmaqqa,
Kelibtur bunda Moskovdan necha kun mehmon”, bezgak.

Bu yanglig’ bandalarga bersa ozor intiqomig’a,
Qurubon behu bunyodi, ne tong, bo’lsa xazon bezgak.

Iloho, saqla sha’riydin Muqimiyg’a jiyandir bu,
Bahaqqi, chor yoru hurmati payg’ambaron bezgak.

Ro’zimuhammad Do’smatov hayotidagi voqealarni eslab quyidagilarni so’zlaydi:

“Men Qo’qonda bezgak bilan og’riganimdan keyin, tog’am Muqimiy madrasadagi o’z hujralarida saqlab parvarish qildilar. Dori-darmon yordamida, tog’amning hafsala bilan qilgan parvarishlari orqasida kasaldan xolos topdim. Biz tog’am Muqimiy bilan ko’p va uzoq-uzoq suhbatlar o’tkazar edik. Men o’zim bilan birga Pushkin, Tolstoy, Krilov kabi mashhur rus shoirlarining asarlaridan ba’zilarini olib kelar edi. U yozuvchilar haqida so’zlab berdim, asarlarini qayta-qaytan o’qib chiqdim. Ikki oydan ko’proq Qo’qonda mehmon bo’lganimdan so’ng, 1898 yil avgust boshlarida Moskvaga o’qishga qaytdim, shundan so’ng tog’am Muqimiy bilan maning o’rtamda muntazam xat aloqasi boshlandi. Man Qo’qondan tog’amdan yuborgan xatlarni yo’qotmay saqlashga harakat

qilar edim.Hozir Qo'qon muzeyida saqlanayotgan xatlar tog'am yozgan xatlarning ko'pchiligi bo'lsa hamhammasi emas..." deya xotirlaydi.

Muqimiyning hayot haqidagi shirin orzularini,xalq turmushining farovon bo'lishi haqidagi istaklarini,idealini ko'rsatish jihatidan uning "Ta'rifi pech" yumori g'oyat hayratlanarli xarakterdadir.Bu yumorda shoir pechkani ota-bobodan qolgan sandal va gulxan bilan chog'ishtiradi va turmushimizga kirib kelayotgan yangilik sifatida uni quvvatlaydi.Muqimiy hayotdagi qoloqlikning har qanday ko'rinishiga qarshi edi.Har qanday elementni zo'r quvonch bilan qarshi olar va ulug'lar edi.Muqimiyga xos bo'lgan bu muhim xususiyat "Ta'rifi pech" she'rida ravshan ifodalangan:

Sovuq qayda ekan oromijon pech,
Degaykim ba'zi nodonlar:yomon pech.

Eshikdin qaltirab kelsang isitgay,
Ki mushfiq volidangdin mehribon pech.

Sovuq dushman bo'lib ursa shaboxun,
Qilurg'a daf'I u sohibqiron pech.

Zimiston faslida qursang uyingga
O'zi tanho qochurg'ay qahramon pech.

Kelur na sandali to'gri,na gulxan,
Chiqorg'onin,Muqim,etgay omon pech.

Xullas, Muqimiy turmushning xilma-xil manzaralarini,zamondoshlari va ularning fe'llarini kulgili,esda qoladigan lavhalar,ifodalar bilan bizga yetkazadi.Bu she'rlar ohangiga ko'ra ham yengil,ham ravon.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki,Muqimiy ijodi o'lka hayotida XIX asrning adog'ida yuz bergan bir qator o'zgarishlarni o'zida aks ettirdi.Zavod-fabrikalar tashkil topishi,ishchilar sinfining maydonga kelishi,tili,dini,xulqi,fe'li biznikidan keskin farq qiluvchi rossiyaliklarning Turkistonga kirib kelishi va buning mahalliy xalq turmushiga qilgan ta'siri ilk marta Muqimiy ijodida o'z aksini topdi.

Muqimiy yangilana boshlagan o'zbek adabiyotining mavzu va mazmunigagina emas, ifoda yo'siniga ham yangiliklar kiritdi. O'zbek she'riyatini xalqning so'zlashuv tiliga yaqinlashtirdi. Hayotda ro'y berayotgan hodisalarga befarq bo'lmagani uchun ham hajvga e'tibor berdi. Ijtimoiy fikrni o'stirishga, jamiyat va shaxslardagi turli illatlarni tanqid qilishga diqqat qaratdi. Milliy hayotimiz manzarasi chizilgan sayohatnomani mustaqil janr darajasiga ko'tardi.

Xullas, Muqimiyning ijodi ko'p asrlik o'zbek adabiyotining tamomila yangi bosqichga kirganini, u oddiy kishilar turmushiga bevosita aralasha boshlaganini ko'rsatadi. Uning lirik g'azallari, murabba va muxammaslaridagi tabiat go'zalligi, insoniy tuyg'ularning rang-barangligidan zavq-shavq olsalar, hajviy, yumoristik asarlari va "Sayohatnoma" lari orqali shoirning ijtimoiy-tarixiy voqelikka faol munosabatini anglab yetadilar. Muqimiy umuminsoniy tuyg'ular, azaliy mavzular bilan birgalikda o'z davrini, shu davrda yashayotgan odamlarning katta-kichik muammolarini badiiy adabiyotning masalasiga aylantira bildi. Shu tariqa, adabiyot xalq va uning hayotiga yaqinlashdi. Muqimiy hajviyalari kitobxonni zeriktirib qo'ymaydi. U goh kuldiradi, gohida esa chuqur o'yga toldirib qo'yadi. Uning hajviyalari qahramonlari bizning davrimizda ham yo'q emas albatta. Muqimiy hajviyalari orqali xalqning qalbiga tez kira bildi. Uning soda, hamma uchun tushunarli hajviyalarda real turmushdan olingan voqealar aks ettirilgan. Shoirning qo'lida kulgu qo'pol qah-qaha yoki shunchaki xushchaqchqlik, bachkana mutoyiba emas, balki hayotdagi qoloq taraqqiyotiga to'siq g'ovlarni shaxslar ongi va tabiatidagi ojizlik va salbiy belgilarni xunuk fe'l-atvor va o'rinsiz hatti-harakatlarni qoralash, tanbeh berish, ogohlantirish vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muhammad Aminxo'ja Muqimiy. Tanlangan asarlar G'afur G'ulom nashriyoti, Toshkent-1953 yil.
2. G'.K. Karimov "O'zbek adabiyoti tarixi" 3-kitob, Toshkent "O'qituvchi" 1987 yil.
3. "Ma'naviyat yulduzlari". Abdulla Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti. Toshkent 2001 yil
4. Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug'bek Dolimov, SHuhrat Rizayev, Sunnat Ahmedov. "Milliy uyg'nish davri o'zbek adabiyoti" Toshkent "Ma'naviyat" 2004 yil.
5. N. Karimov, B. Nazarov, U. Normatov, Q. Yo'ldoshev "Adabiyot" darslik majmua. Toshkent "O'qituvchi" 2004 yil.
6. Muqimiy. Saylanma, Toshkent "Ma'naviyat" 2009 yil.